

**Sana: 11-dekabr**

**Fan:** Odobnoma

**Sinf:** 2- sinf

**Mavzu:** Yaxshi fazilat insonga ziynat.

**Maqsad:** O'quvchilarga yaxshi va yomon odatlar haqida tushuncha berish va ularning farqiga borishni o'rgatish;  
Komil inson tushunchasini berish, komilikka intilish hissini uyg'otish;  
Yaxshilarga taqlid qilishga da'vat etish, bolalarda yuksak fazilatlarga ega bo'lishni rivojlantirish, huddi oftob singari barchani shod etishga intilish xislatlarini paydo qilish;

**Dars turi:** Aralashgan

**Dars uslubi:** Tushuntirish, aqliy hujum, klaster

**Dars jihozi:** Syujetli rasmlar, test savollari, maqol va hikmatlar, klaster uchun vatman, marker.

### **Darsning borishi:**

#### **I. Tashkiliy qism:**

- a) Salomlashish;
- b) Davomatni aniqlash;
- c) O'quvchilarni odobnoma darsiga tayyorlash;
- d) Ma'naviyat daqiqasini o'tkazish;

#### **II. O'tgan darsni mustahkamlash:**

O'tgan dars yuzasidan suhbatlashish. O'quvchilar bajarib kelgan ishlari bilan tanishib chiqish.

“Mehmon- mehmon” o'yinini tashkil qilish:

- Esonmisiz- omonmisiz,
- Bugun bizga mehmonmisiz?
- Esonmisiz- omonmisiz,
- Bugun sizga mehmonmiz.

Odob qoidalari yuzasidan shu tarzda savol- javob o'tkaziladi. O'quvchilar bilimi mustahkamlanadi.

#### **III. Yangi mavzu bayoni:**

1. Yaxshi odatlarga qanday odatlar kiradi?
2. Yomon odatlarga qanday odatlar kiradi?
3. Siz qanday odatlarga amal qilasiz?
4. Qanday odatlardan voz kechishni istaysiz?

Savollar asosida o'quvchilar bilimiga aqliy hujum uyushtiriladi. O'quvchilar fikri umumlashtirilib, yangi mavzu e'lon qilinadi. Yangi mavzu:” Yaxshi va yomon odatlar” Xalqimiz urf- odatlarida, hikmatli so'zlarda berilgan insoniy hislatlarning eng yaxshilari yuzasidan suhbat o'tkaziladi. Sahna ko'rinishi “Yomon yo'lga kirgan noqobil farzand nolasi” o'quvchilarga namoish etiladi. Sahna ko'rinish yakunida Prezidentimizning asarlarida berilgan fikrlar o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan muhokama qilinadi.

( 2015-yil „Keksalarni e'zozlash “yilideb nomlanganiga bog'lanib ketiladi)  
Test topshiriqlari ustida ishlash.

1. Salomlashganda aytiladigan ushbu so'zlarning qaysi biri to'g'ri?

- a) Assalom
- b) Salomalaykum
- c) Assalomu alaykum

2. Ota- ona chaqirganda javob qaytaradigan qaysi so'z to'g'ri?

- a) To'xtab turing
- b) Ha,labbay
- c) Hozir-ey

3. Muqaddas dargoh qayer?

- a) Masjid, oila, maktab
- b) Tarixiy yodgorlik
- c) Yuqori lavozimli ishxona

4. Qanday odobsiz bola odamga salom bermaydi?

- a) Urushqoq
- b) Yolg'onchi
- c) Raqib

O'quvchilar bilan test natijalari yuzasidan suhbat o'tkaziladi.Darslik bilan ishlash.



#### **IV. Mustahkamlash:**

Topshiriq beriladi.

Yaxshi va yomon odatlarga misol keltiring, jadvalga joylashtiring.Kim ko'p jadvalga misollarni joylashtirsa, ana shu o'quvchi mutloq g'olib bo'ladi.

Darsda faol qatnashmagan o'quvchini doska oldiga chaqirib, ularga topshiriq beriladi.

Kaster usulida yaxshi va yomon odatlarni sanab beradilar, yoki odob- ahloqqa oid maqol, hikmatli so'zlar yoki rivoyatlar aytib berish topshirig'ini bajarish aytiladi.



#### **V. Dars yakuni va o'quvchilar bilimini baholash:**

Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi, o'zlarining mustaqil fikrlari bilan qatnashgan o'quvchilar ham rag'batlantiriladi.Uyga vazifa mavzu yuzasidan savollarga javob yozib kelish va o'zlarida sezgan yomon odatlardan voz kechish usullarini o'ylab kelish;Darsni ushbu she'r bilan yakunlanadi:


Har narsaning o'z vaqti bor,  
Har ishning o'z rejasi.  
Bilgin do'stim sen doim,  
Bo'yin egsang tartibga,  
Yetarsang murodingga...

Maktab rahbari:

Tasdiqlayman :  
R.Z.Fayzillayeva

Chirchiq shahar XTMFMT va TEB ga qarashli  
11-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich  
sinf o'qituvchisi

A. Matkarimovanning odobnoma fanidan  
1 soatlik ochiq dars ishlanmasi.



***Mavzu: Sahiy va kamtar bo'ling***

